



CHET TILLARNI O‘QITISHDA AUTENTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK SAMARADORLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19625273>

Anarboeva Irodakhon Oripovna

Andijon davlat chet tillari instituti

Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti

kafedrasida dotsenti, PhD.

ORCID: 0009-0007-7957-2798

anarboevairodaxon@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada chet tillarni o‘qitish jarayonida autentik materiallardan foydalanishning nazariy-metodik asoslari va ularning samaradorligi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida autentik resurslarning o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytirish, kommunikativ va interkultural kompetensiyalarni rivojlantirish hamda tinglab va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini takomillashtirishdagi roli yoritiladi. Amaliy misollar asosida ushbu yondashuvning samaradorligi asoslab berilib, uni qo‘llashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish strategiyalari taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *autentik materiallar, kommunikativ yondashuv, intercultural, kompetensiya, til o‘qitish metodikasi, motivatsiya, reseptiv ko‘nikmalar, CEFR*

Abstract: *This article provides an in-depth analysis of the pedagogical effectiveness of using authentic materials in foreign language teaching. It explores their role in enhancing learners’ intrinsic motivation, communicative competence, intercultural awareness, and receptive skills. Drawing on practical classroom-based examples, the study demonstrates how authentic resources contribute to meaningful language acquisition. Furthermore, the paper discusses potential challenges associated with their implementation and proposes methodological strategies to optimize their use in accordance with CEFR standards.*

Keywords: *authentic materials, communicative approach, intercultural competence, language teaching methodology, motivation, receptive skills, CEFR*

Аннотация: *В данной статье рассматривается дидактическая эффективность использования аутентичных материалов в процессе обучения иностранным языкам. Особое внимание уделяется их влиянию на мотивацию обучающихся, развитие коммуникативной и межкультурной компетенций, а также навыков аудирования и чтения. На основе практических примеров*



обосновывается значимость данного подхода, а также анализируются возможные трудности его реализации и предлагаются пути их преодоления.

Ключевые слова: *аутентичные материалы, коммуникативный подход, межкультурная компетенция, методика преподавания, мотивация, рецептивные навыки, CEFR*

Zamonaviy til o‘qitish metodikasida autentik materiallardan foydalanish nafaqat kommunikativ, balki kognitiv va psixolingvistik nuqtai nazardan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tilni o‘zlashtirish jarayoni insonning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va xotirada saqlash mexanizmlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Psixolingvistik tadqiqotlarga ko‘ra, real kommunikativ kontekstda taqdim etilgan til birliklari sun‘iy yaratilgan materiallarga nisbatan tezroq va samaraliroq o‘zlashtiriladi. Buning sababi shundaki, autentik materiallar semantik va pragmatik jihatdan boy bo‘lib, ular o‘quvchining mavjud bilimlari bilan bog‘lanadi. Stephen Krashen tomonidan ilgari surilgan “input hypothesis” nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilar darajasidan biroz yuqori bo‘lgan tabiiy til materiali (i+1) o‘rganish jarayonini faollashtiradi.

Shuningdek, autentik materiallar orqali o‘quvchilarda kontekstual fikrlash rivojlanadi. Ya‘ni, ular alohida so‘z yoki grammatik konstruktsiyalarni emas, balki butun kommunikativ vaziyatni anglashga o‘rganadi. Bu esa tilni fragmentar emas, balki yaxlit tizim sifatida qabul qilishga yordam beradi.

Bugungi kunda chet tilini o‘qitish jarayoni faqat grammatik bilimlarni

berish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarni real kommunikativ faoliyatga tayyorlashni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli, o‘quv jarayonida tabiiy til muhitini yaratish muhim metodik vazifa hisoblanadi.

Autentik materiallar aynan shu vazifani bajaruvchi vosita sifatida qaraladi. Ular real hayotda yaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarga tilning tabiiy ishlatilishini bevosita kuzatish imkonini beradi. Claire Kramersch fikricha, tilni samarali o‘rganish madaniy kontekst bilan chambarchas bog‘liq.

Zamonaviy metodik qarashlarga ko‘ra, tilni o‘rganish jarayoni kommunikativ faoliyat orqali amalga oshirilishi kerak. Michael Byram bu jarayonda interkultural kompetensiyaning muhimligini ta‘kidlaydi.

Jack C. Richards esa autentik materiallarni real kommunikativ muhitni yaratish vositasi sifatida baholaydi.

Bundan tashqari, Council of Europe tomonidan ishlab chiqilgan CEFR tizimi ham o‘quvchilarning real hayotda muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi.

Autentik materiallar o‘quvchilarning qiziqishini tabiiy ravishda oshiradi, chunki ular sun‘iy emas, balki real hayotga tegishli kontentni o‘z ichiga oladi.



Natijada, o'quvchilar o'z bilimlarini amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Autentik materiallardan foydalanishda muhim masalalardan biri bu - kognitiv yuklamani to'g'ri boshqarishdir. Juda murakkab yoki haddan tashqari ko'p ma'lumotli materiallar o'quvchilarda charchoq va tushunmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu bois, John Sweller tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv yuklama nazariyasiga asoslanib, o'qituvchi quyidagilarni hisobga olishi zarur: material hajmini bosqichma-bosqich berish, asosiy va ikkilamchi ma'lumotlarni ajratish, vizual va audio qo'llab-quvvatlashdan foydalanish.

Natijada o'quvchilar materialni ortiqcha zo'riqishsiz o'zlashtiradi.

Misol uchun, Fransuz kafesidagi buyurtma jarayonini aks ettiruvchi video (real dialog) ni o'rgatish uchun, O'qituvchi asosiy iboralarni (menu, commander, addition, etc.) tushuntiradi va Talabalar taxmin qiladi: "Kafeda qanday gaplashiladi?". So'ngra, Video 2 marta tinglatiladi keyin talabalar quyidagilarni aniqlaydi: buyurtma berish iboralari, muloyimlik shakllari, narx bilan bog'liq savollarni topadi.

Kommunikativ faoliyatni rivojlantirish. Bunday materiallar o'quvchilarni muhokama, fikr almashish va interaktiv faoliyatga jalb etadi. Bu esa nutqni tashkil etish, argumentatsiya va muloqot ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Autentik materiallar orqali o'quvchilar boshqa madaniyat vakillarining turmush tarzi, qadriyatlari va an'analari bilan tanishadi. Bu esa global fikrlashni rivojlantiradi.

Autentik audio va matnlar real tezlik va uslubda bo'lgani sababli tinglab va o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

H. Douglas Brown ta'kidlashicha, tabiiy input o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Autentik materiallardan samarali foydalanish uchun quyidagi bosqichlar tavsiya etiladi: tayyorlov bosqichi (lug'at bilan ishlash), asosiy faoliyat (tahlil va tushunish), yakuniy bosqich (muloqot va ijodiy topshiriqlar).

Bu yondashuv o'quv jarayonini tizimli va samarali tashkil etishga yordam beradi.

Autentik materiallardan foydalanishda ayrim qiyinchiliklar kuzatiladi: murakkab til birliklari, tez nutq tempi, madaniy kontekstning tushunarsizligi.

Bularni bartaraf etish uchun o'qituvchi materiallarni moslashtirishi va metodik qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi lozim. O'quvchilar real hayotiy vaziyatda muloqot qilishni o'rganadi. Pragmatik kompetensiya rivojlanadi (muloyimlik, intonatsiya). Tinglab tushunish va og'zaki nutq uyg'un rivojlanadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, autentik materiallar: o'quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi, real til muhitini modellashtiradi, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Biroq, ularni samarali qo'llash uchun o'qituvchi metodik jihatdan puxta tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, autentik materiallar chet tilini o'qitishda yuqori samaradorlikka ega bo'lib,

o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Ular orqali o'quv jarayoni real kommunikativ muhitga yaqinlashadi. Shu bilan birga, ularni qo'llashda metodik yondashuv va moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Claire Kramersch (1993). Context and Culture in Language Teaching.
2. Michael Byram (1997). Intercultural Communicative Competence.
3. Council of Europe (2001). CEFR.
4. Jack C. Richards (2006). Communicative Language Teaching Today.
5. H. Douglas Brown (2007). Principles of Language Learning and Teaching.
6. Oripovna, A. I. (2025). Nominativ birliklarning kommunikativ-pragmatik tamoyillari (fransuz va o'zbek tillari misolida). American journal of education and learning, 3(4), 265-268.
7. Oripovna, A. I. (2026). Nutqiy muloqotda bilvosita nom tanlash muammosi: semiotik-madaniyatshunoslik, sotsiolingvistik va gender jihatlari. American journal of education and learning, 4(2), 514-517.
8. Sultonova, N., Axmedova, D., Inogamova, D., Anarboyeva, I., Kurbonova, G., Bakhtiyarov, M., & Eshqobilov, O. (2026). Gene-Environment Interactions in Bilingualism and Cognitive Flexibility in Linguistic Studies. Genetics and Molecular Research, 25(1).